Ko’sak qurtiga qarshi biologik preparat ishlab chiqildi

Avval xabar qilganimizdek, joriy yil 19-avgust kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy yutuqlari ko’rgazmasi o’tkazildi. Mazkur ko’rgazmada ilk marta O’zR FA Zoologiya instituti olimlari tomonidan yaratilgan ko’sak qurtiga qarshi biologik preparat namoyish etildi.

“Ko’sak qurti g’o’za va boshqa qishloq xo’jalik o’simliklarining eng asosiy zararkunandalaridan biri hisoblanadi. Bunday zararkunanda hasharotlar sonini cheklovchi tabiiy omillar mavjud bo’lib, ularga kassalik chaqiruvchi mikroorganizmlar kiradi. Ularning orasida viruslar muhim ahamiyatga kasb etadi, ular maxsus ta’sir qilish xususiyatiga ega, ya’ni, faqat o’z xo’jayin hasharotini nobud qiladi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, entomopatogen virus g’o’zadagi ko’sak qurtiga qarshi ekologik toza bo’lgan istiqbolli biopreparat yaratishda asos bo’ldi” deydi preparat mualliflaridan biri Zuhra Ahmedova.

“HAVIR” biologik preparati bilan katta dala tajribalari respublikamizning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Farg’ona vodiysi viloyatlari fermer xo’jaliklarida o’tkazildi hamda yuqori biologik samaradorligi qayd etildi.

Biologik preparat afzalligi:

- Biopreparat ko’sak qurti sonini iqtisodiy zarar keltirish mezoni chegarasidan ortmaydigan darajada bo’lishini nazorat qilish uchun mo’ljallangan.

- HAVIR biopreparati ekologik jihatdan sof hisoblanadi, o’ziga xos, faqat ko’sak qurtiga ta’sir etadi, foydali hasharotlar va issiqqonli hayvonlar uchun zararsiz hisoblanadi va 5-10 sentner hosildorlikni saqlab qoladi.

- Natijada mahalliy bozor uchun yangi mahsulot - biologik preparatni ishlab chiqarish, import o’rnini bosish

hamda mahsulot eksportini tashkil etish imkoniyatini beradi.

- Kimyoviy preparatlar sarf me’yorini keskin kamaytirishga asos bo’ladi.

- Ekologik sof mahsulot yaratiladi.

Mazkur preparat uchun O’zR Intelektual mulk agentligi patenti olindi.